



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№1
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 130 sahifa,
5-yanvar, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Muhandislik grafikasi bo'yicha raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda grafik dasturlardan foydalanish metodikasini yaratish.....	34
<i>Axmatova Asila Akmaljon qizi</i>	
Investigation on the Efficacy of Pedagogical Approaches in Virtual Learning	37
<i>Burkhonova Zafaruz Qobilovna, Makhmudov Shaxboz Muzzafarovich</i>	
The Role of Input And Interaction in Second Language Acquisition.....	40
<i>Dilorom Poyonova</i>	
Muhandislik yo'nalishida kartografiya fanini integratsiyalashgan holda o'qitish	45
<i>Kazakbayeva Muxabbat Turabayevna</i>	
Incorporation of Moocs Into the Digital Educational Framework for the Development of Professional Speech Culture.....	49
<i>Kudrat-Zoda Kamola Alisherovna</i>	
Pedagogical Strategies for Enhancing Students' Creative Thinking Throughout the Learning Process	52
<i>Makhmudova Ugiloy Baxtiyarovna</i>	
Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning media savodxonligini rivojlantirish	57
<i>Mirzayeva Mayramxon Zaynobiddinovna</i>	
Transformatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirish.....	61
<i>Mirzayeva Ziyoda Uktamjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish	65
<i>Qurbonboyeva Gulnoza Mahmud qizi</i>	
An Online Service that Integrates Up-To-Date Content From Well-Known Mooc Platforms	68
<i>Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Abdurahmonova Osiyo Jahongirovna</i>	
The Fourth Phase of Distance Education: Integrated Technologies and Moocs	71
<i>Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, TaranenkoTatyana Viktorovna</i>	
Gamifikatsiya orqali iqtidorli o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirish	74
<i>Rustamova Manzura Mirkamolovna, Xaytbayeva Malika Qobil qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim fanlarini didaktik o'yinlar orqali tushuntirish	77
<i>Rustamova Manzura Mirkamolovna, Shomaxsudova Diyora Dilshod qizi</i>	
O'smirlar orasida alkogolizm, giyohvandlik va toksikomaniya profilaktikasi	80
<i>Sh. F. Mustafayeva</i>	
Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students	85
<i>Turayev Alimjan Bahriddinovich</i>	
The Problems of Remote Learning Technology and Global Trends in University Education Development.....	88
<i>Tursunov Begzod Sherzodovich, Shukurova Madina</i>	
A Case Study of Humanities Disciplines Using Massive Open Online Courses as a Resource for Blended Learning	91
<i>Tursunov Begzod Sherzodovich, Eshkabilov Kodirali Davlatmuratovich</i>	
Modern Education and Training Practices for Future Dentists	94
<i>Turumova Marjona Bahodirovna</i>	
Kommunikativ yondashuv asosida nutqiy kompetensiyani shakllantirish.....	98
<i>Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida mutaxassislik fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar: amaliy muammolar va ularning innovatsion yechimlari	102
<i>Xabibulayeva Shaxrizoda O'ktam qizi</i>	



Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarda nutq o'stirish darslari orqali Soft Skills ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy pedagogik psixologik asoslari	106
<i>Xoldarova Mubina Qudratbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhit va uning turlari	110
<i>Xolmirzayeva O'g'iloy Murotali qizi</i>	
Развитие компетенций студентов-биологов в изучении языков	114
<i>Абдуллаева Нигора Курбановна</i>	
Формирование интереса и повышение эффективности школьного урока физической культуры	118
<i>Мукимов Олим Эргашевич</i>	
Incorporation of Massive Open Online Courses Into the Higher Education Framework	122
<i>Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Nasrullayev Javlonbek Tal'atjonovich</i>	
Совершенствование инновационной методики социально-педагогической деятельности будущих педагогов в полилингвальной среде с использованием искусственного интеллекта	125
<i>Хужаниязова Гузаль Юлдашевна</i>	



BOSHLANG'ICH TA'LIM FANLARINI DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI TUSHUNTIRISH

Rustamova Manzura Mirkamolovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti PhD, dotsent

Shomaxsudova Diyora Dilshod qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

"Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi,

Boshlang'ich ta'lim mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim fanlarini didaktik o'yinlar orqali tushuntirish metodikasi tahlil qilinadi. Didaktik o'yinlar bolalarda o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirish, mavzularni chuqurroq anglash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda samarali vosita sifatida ko'rib chiqilgan. Maqolada o'quv jarayonida interaktiv metodlardan foydalanishning pedagogik afzalliklari hamda didaktik o'yinlarning turli shakllari misollar asosida yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, didaktik o'yin, interaktiv o'qitish, pedagogik metod, o'quv motivatsiyasi.

Abstract: This article explores the methodology of teaching primary education subjects through didactic games. Didactic games are presented as an effective tool for enhancing students' interest in learning, improving comprehension of educational content, and developing practical skills. The article highlights the pedagogical benefits of using interactive methods and provides examples of various forms of didactic games.

Key words: primary education, didactic game, interactive teaching, pedagogical method, student motivation.

Аннотация: В статье рассматривается методика объяснения предметов начального образования с помощью дидактических игр. Дидактические игры представлены как эффективный инструмент повышения интереса к обучению, более глубокого усвоения учебного материала и формирования практических навыков у детей. В статье раскрываются педагогические преимущества использования интерактивных методов, а также различные формы дидактических игр.

Ключевые слова: начальное образование, дидактическая игра, интерактивное обучение, педагогический метод, мотивация учащихся.

KIRISH

Hamamizga ma'lumki, bolalarning hayotida maktab davri juda katta o'rin tutadi. Chunki bolalar bog'cha ta'limidan so'ng aynan savodining chiqishi shu davrga to'g'ri keladi. Bu davrda bolalar uchun har taraflama tushunarli bo'lgan mashg'ulotlardan, qiziqarli va zamonaviy usullardan foydalanish lozim. Maktab davrida esa bolaning savodi chiqishi bilan birgalikda uning dunyoqarashi shakllanib, fikrlash doirasi kengayib boradi. O'yin faqatgina vaqtning o'tishi yoki bolalar uchun shunchaki odatiy hol emas. O'yin jarayonida bolaning dunyoqarashi va fikrlash qobiliyati rivojlanib boradi. Birinchi sinfga qabul qilinib, maktab ostonasiga ilk qadam qo'ygan bolaning faoliyatida ham o'yin asosiy o'rinda turadi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchi faoliyatidan o'yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvofiq foydalanishi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi. Shu sababli boshlang'ich ta'limni didaktik o'yinlarsiz tasavvur qilish qiyin. Boshlang'ich ta'limda motivlar hosil qilishda didaktik o'yinlarning o'rni beqiyosdir. O'yinsiz tom ma'nodagi aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas.

O'yin o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg'otadigan uchqundir. O'yin boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar – o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo'llaniladigan samarali usuldir. O'yin vositasida o'quvchilarning bilimni o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, ular turli xil predmetlar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadilar, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi. Didaktik o'yinlar pedagogik jarayonda bilimlarni osonroq va tabiiy tarzda o'zlashtirishga xizmat qiluvchi samarali vosita hisoblanadi. O'yinlar orqali bolalar mavzularni faollik bilan o'rganadilar, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Shuningdek, didaktik o'yinlar o'quvchilarda o'rganishga bo'lgan motivatsiyani oshiradi, tushuntirish jarayonini qiziqarli va esda qolarli qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanish samaradorligini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba-sinov metodlari qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat, test, so'rovnoma hamda taqqoslash usullaridan foydalanildi. Tajriba ishlari davomida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan didaktik o'yinlar asosida tashkil etilgan darslar an'anaviy darslar bilan qiyosiy tahlil qilindi. O'quvchilarning bilimni o'zlashtirish darajasi, darsga bo'lgan qiziqishi va faolligi tajriba oldi va tajriba yakunida olingan natijalar asosida baholandi. Olingan ma'lumotlar miqdoriy va sifat tahlili orqali umumlashtirilib, didaktik o'yinlarning boshlang'ich ta'lim fanlarini tushuntirishdagi pedagogik imkoniyatlari aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'yin vositasida bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusida o'quv va mehnat faoliyatini tashkil etish hamda insonlar bilan munosabatga kirishishga oid ruhiy xususiyatlar rivojlanadi. O'yin orqali bolalar borliqni o'rganadi va dunyoni o'zgartirishga intiladi. Shunday qilib, o'yin inson faoliyatining shakllanishiga asos soladi. O'yinda inson borliqni aks ettirish qobiliyatini namoyon qiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati shundaki, unda ilk bor bolaning dunyoga ta'sir etish ehtiyoji paydo bo'ladi va shakllanadi. Maktab yillarida o'yin shakllari yanada keng rivojlanadi. O'quvchilarning o'yin faoliyati ko'plab soha olimlari, ya'ni faylasuflar, sotsiologlar, biologlar, san'atshunoslar, etnograflar, ayniqsa pedagoglar va psixologlarning e'tiborini tortadi. Didaktik o'yinlar pedagogik jarayonda o'quvchilarga bilim, ko'nikma va malakalarni o'rgatish maqsadida ishlab chiqilgan o'yin shakllari bo'lib, ularning asosiy vazifasi o'quvchilarni faollashtirish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Pedagogik tadqiqotlarga ko'ra, didaktik o'yinlar bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, motivatsiyani oshirish, shuningdek, ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish kabi muhim pedagogik vazifalarni bajaradi. Xususan, mavzularni qiziqarli va interaktiv shaklda o'rganish orqali o'quvchilar materialni yaxshiroq anglaydi, o'yin jarayonida turli vazifalarni bajarish orqali bilimlarni amaliyotga tatbiq etadi, o'yin shaklidagi mashg'ulotlar esa o'rganishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi va jamoaviy faoliyat orqali muloqot hamda hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Didaktik o'yinlar turli shakl va metodlarga ega bo'lib, ular so'zli o'yinlar (hikoya qilish, savol-javob, rolli o'yinlar), vizual o'yinlar (rasm, diagramma, kartochkalar), matematik va mantiqiy o'yinlar (hisoblash, mantiqiy masalalarni yechish), shuningdek, jismoniy va harakatli o'yinlar orqali amalga oshiriladi. Har bir o'yin turi o'ziga xos pedagogik xususiyatlarga ega bo'lib, masalan, so'zli o'yinlar til va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirsa, jismoniy o'yinlar amaliy ko'nikmalar va diqqatni kuchaytiradi. Amaliy misol sifatida matematika fanida "Hisoblash o'yini" orqali bolalar raqamlarni qo'shish va ayirishni o'rganadi, bunda ularni rag'batlantiruvchi baholar va aniq o'yin qoidalari qo'llaniladi; tabiatshunoslik fanida esa "O'simliklar va hayvonlarni topish" o'yini orqali bolalar ekologik tushunchalarni amaliyotda o'zlashtiradi.

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar bolalarda bilimlarni uzoq muddat yodda saqlash, mavzuni chuqur tushunish va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda an'anaviy metodlarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega. Didaktik o'yinda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini hisobga olgan ta'limiy vazifalarning mavjud bo'lishi muhim bo'lib, rahbarlik qiluvchi kattalar didaktik o'yinlarning qiziqarli va diqqatni jamlaydigan shakllarini tanlashga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Didaktik o'yinlarning boshqa faoliyat turlaridan farqlanadigan muhim belgisi uning tarkibiy qat'iyligidir, ya'ni o'yin mantiqi, o'yin harakati va o'yin qoidalarining aniq belgilanganligidir. O'yin mantiqi asosan uning sarlavhasida aks etadi, o'yin harakati jarayonida esa o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, ularning o'z qobiliyatlarini namoyon etishlari hamda o'yin maqsadiga erishish uchun mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llashlari uchun zarur sharoit yaratiladi.

XULOSA

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim fanlarini didaktik o'yinlar orqali tushuntirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, didaktik o'yinlar pedagogik jarayonda nafaqat bilimlarni samarali o'zlashtirish vositasi, balki bolalarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv hamda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishning eng samarali shakllaridan biri hisoblanadi. Didaktik o'yinlar bolalarda mavzuga bo'lgan qiziqishni oshiradi, diqqat va konsentratsiyani mustahkamlaydi, shuningdek, interaktiv metodlar orqali o'quv jarayonini qiziqarli va esda qolarli qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'yinlar ularning yosh xususiyatlariga mos holda mavzularni osonroq tushunishga yordam beradi va o'rganishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytiradi. Amaliy misollar shuni ko'rsatdiki, matematika, ona tili, tabiatshunoslik, san'at va musiqa fanlarini didaktik o'yinlar yordamida tushuntirish jarayonida bolalar faol ishtirok etadi hamda bilimlarni tezroq va samarali o'zlashtiradi.

Shu bilan birga, guruhli ishlar orqali ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalar rivojlanadi, o'quvchilar bir-biriga yordam berishni o'rganadi. Shuni ta'kidlash joizki, didaktik o'yinlarni o'quv jarayoniga joriy etish nafaqat o'quvchilarning o'rganish qobiliyatini oshiradi, balki o'qituvchilar uchun ham samarali metodik vosita sifatida xizmat



qiladi. Kelajakda boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlarning imkoniyatlarini kengaytirish va yangi interaktiv shakllarni yaratish pedagogik jarayon sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, didaktik o'yinlar boshlang'ich ta'limning ajralmas qismi bo'lib, ularning pedagogik va amaliy ahamiyati katta ekanligini ta'kidlash mumkin.

Mazkur tadqiqot shuni ko'rsatadiki, interaktiv o'qitish usullarini joriy etish o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali va qiziqarli qiladi hamda ularning kelajakdagi ta'limga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev J.G'. "Ta'lim yangilanish yo'lida". – Toshkent: O'qituvchi, 2000.
2. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – Toshkent, 2008.
3. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: "Moliya", 2003.
4. Mirzayev J.O., Beknazarova X.S., Yakubova G.L. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida miqdoriy tushunchalarni shakllantirish usullari. Research and Education, 2023-11-30, 295–299-betlar.
5. Mirzayev J.O., Ergasheva M. Aniq fanlarni o'qitishning muammolari va ularning nazariy hamda amaliy ahamiyati. Interpretation and Researches, 2024-02-18.
6. Ibragimov R. "Boshlang'ich maktab o'quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari". – Toshkent, 2001.
7. Inoyatova M., Nosirov A., Divanova M., Boymurodova G., Baxromov A., Rasulova M., Abduqudusova F. "Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash". – Toshkent, 2014.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.